

SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA YO'LLARI

Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li

TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrası o'qituvchisi

sh.nematov@tsue.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari shuningdek, sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish orqali sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, xorijiy davlatlar amaliyotini o'rgangan holda mamlakat sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish amaliyotini samarali tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *sanoat, sanoat tarmog'i, sanoat korxonalari, sanoat salohiyati, sanoat korxonalari samaradorligi, iqtisodiy rivojlanish, sanoat ishlab chiqarish.*

ЗНАЧЕНИЕ И ПУТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ ОТРАСЛИ

Нематов Шохрухбек Мамуржон угли

Преподаватель кафедры макроэкономической политики и прогнозирования,

ТГЭУ

sh.nematov@tsue.uz

Аннотация: В данной статье проанализированы научные взгляды отечественных и зарубежных учёных по вопросам экономического развития промышленной отрасли, а также возможности повышения экономической эффективности промышленных предприятий за счёт развития промышленного сектора. Наряду с этим, на основе изучения зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации по эффективной организации процесса экономического развития промышленной отрасли страны.

Ключевые слова: *промышленность, промышленная отрасль, промышленные предприятия, промышленный потенциал, эффективность промышленных предприятий, экономическое развитие, промышленное производство.*

THE IMPORTANCE AND WAYS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR

Ne'matov Shokhrukhbek Mamurjon ugli

Lecturer at the Department of Macroeconomic Policy and Forecasting, TSUE

sh.nematov@tsue.uz

Abstract: This article analyzes the scientific views of local and foreign scholars on the economic development of the industrial sector, as well as the opportunities to increase the economic efficiency of industrial enterprises through the development of the industrial sector. In addition, based on the study of international practices, proposals and recommendations have been developed for the effective organization of the economic development of the country's industrial sector.

Key words: *industry, industrial sector, industrial enterprises, industrial potential, efficiency of industrial enterprises, economic development, industrial production.*

KIRISH

Sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish amaliyoti sanoat korxonalarini uchun qisqa muddatda aholi farovonligiga o'z ta'sirini o'tkazishga xizmat qiladi. So'ngi yillarda mamlakatda faoliyat yuritayotgan bir qator sanoat korxonalarini tomonidan ushbu amaliyotni tashkil etilishi natijasida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishilganligi quvonarli albatta. Lekin xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda xulosa chiqaradigan bo'lsak, O'zbekistonda tashkil etilgan sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish amaliyoti orqali erishilgan natijalar qoniqarli ahvolda.

2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni [1] asosida qabul qilingan mazkur strategiyada 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta muhim maqsad o'z aksini topgan bo'lib, mazkur hujjat orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Ma'lumki, sanoat – ishlab chiqarishning eng katta va yetakchi sohasi hisoblanadi. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish orqali mamlakatda to'g'ridan to'g'ri aholi turmush tarziga, iqtisodiy farovonligiga o'z ta'sirini o'tkazadi, O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlanishi mehnat qurollari va iste'mol tovarlarining asosiy qismi yaratiladi, yer usti va osti boyliklaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari yuqorilaydi.

Sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish hozirgi kundagi global vaziyatdan kelib chiqqan holda mamlakatda butun dunyodagi o'rni va mavqeyini belgilab beradi. Zero, sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining

barqarorligiga erishish mumkin. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish amaliyotini samarali tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida va xorijda bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ham izlanishlar olib bormoqda.

Xususan bir qator xorijiy olimlar Y.Rodionov, D.Deveryuks, R.Porter, B. Roberts, O. Lenko, R. Nureyev, O.Dedovlar, J.Rifkin o'zlarining ilmiy ishlarida keltirib rivojlantirish bo'yicha asosli va belgilangan nazariy asoslarni keltirib bergan.

Iqtisodchi mahalliy olimlar ham izlanishlar olib bormoqda ulardan B. Salimov, N. Maxmudov, I. Xotamov, J. Fayzullayev, A. Qosimov, B. Tojimatov U. Muxitdinov, J. Imamov X. Ishbutayeva, R. Zayniddinov Sh. Nizomova, E. Maxmudov kabi ustoz olimlar sanoat tarmog'ini rivojlantirish orqali birqancha izlanishlarni muntazam olib bormoqda [2].

O.Lenko sanoat korxonasini boshqarish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini baholash bo'yicha bir qator taklif tavsiyalar ishlab chiqqan. Axborot kommunikatsiya tizimlari hozirgi kunda kirib bormagan soha deyarli qolmadi, bu soha bo'yicha doimiy izlanishlarni olib borishni butun dunyodagi vaziyatni o'zi xam tasdiqlab turibdi [3].

O.Dedov sanoat korxonalar boshqaruv tizimini shakllantirish umumiy holda boshqaruv usullari tizimlarini yaratish orqali amalga oshirgan. Zaruriy natijaga erishish maqsadida tashkiliy tizim faoliyatini amalga oshirish sanoat boshqaruv tizimini ushbu tizimga ta'sir etishi orqali bajarilishi hamda sanoat korxonasining iqtisodiy moslashuvini boshqarish usullari bo'yicha yondashuvlarini ko'rsatib bergan [4].

J.Rifkin fikricha, uchinchi sanoat inqilobi g'oyasi keng xalqaro e'tirofqa sazovor bo'ldi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan birgalikda yangi energiya manbalarini joriy etish sifatida qaraladi, aniqrog'i, u besh elementning kombinatsiyasi sifatida amalga oshiriladi [5].

Mahalliy olimlardan B.Sh.Tojimatov kichik sanoat zonalarining rivojlanish omillari haqida izlanishlarni olib borib mamlakatga aniq ma'lumotlarni berib kelmoqda. Shuningdek, UNIDO ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi kichik sanoat zonalarining moliyaviy samaradorligi 34 foizga oshgani ta'kidlandi, sanoat zonalarini uchun harakat strategiyalari va o'sish mexanizmlari belgilanib o'tildi, deya ta'kidlab o'tgan [6].

S.Z. Tashmatov o'zining "Raqamli iqtisodiyot rivoji – investitsiya, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish" mavzusida olib borgan tadqiqot ishida O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini va Investitsiya muhiti va moliyaviy barqarorlikni yaxshilash bo'yicha tahlil qilgan samarali hisoblanishini tavsiyalar berib, ta'kidlab o'tgan [7].

A.Artikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e‘tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan [8].


Fikrimizcha, bugungi kundagi iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilgan holda sanoat korxonalarini, sanoat tarmog‘i faoliyati, samaradorligi, butun dunyoda yaratilgan zamonaviy, innovatsion va foydalilik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan texnologiyalarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kelish, raqamli texnologiyalarni sanoat tarmog‘iga keng jalb qilish orqali sanoat tarmog‘ini tezkorlik bilan iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada mavzu bo‘yicha xorijiy olimlar tadqiqotlari chuqur o‘rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma‘lumotlar hamda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘ngi 5 yildagi O‘zbekiston Respublikasida sanoat sohasida ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 110540 tani tashkil etgan bo‘lsa 2025-yil 1-fevral holatiga ushbu ko‘rsatkich 113514 tani tashkil etdi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarining soni, 2021-2025-yil fevral oyi boshiga¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita->

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki qayta ishlab chiqarish sohasining o'sishi, ish o'rinlari yaratilishi hamda aholi bandligini oshib borishi mamlakatda aholining turmush darajasini osishini belgilab turibdi. O'tgan 5 yil davomida 2021-2025-yillar davomida sanoat korxonalarining soni o'sish ko'rsatkichi 26 foizni ko'rsatgan. Bu o'sish darajasida, to'qimachilik va tikuvchilik sanoati, oziq-ovqat sanoati, metallurgiya, mashinasozlik kabi sanoat korxonalari jadallik bilan rivojlanmoqda.


O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarining dinamik o'sishi soni bo'yicha tahlil qilib ko'radigan bo'lsak 2021-yilda 8,8 foizni, 2022-yilda 9,4 foizni, 2023-yilda 5,4 foizni va 2024-yilda 3,3 foizga o'zgarib borayotganligini sezish mumkin.

2024-yilning yanvaridan sentyabr oyi yakunigacha sanoat tarmog'ini ulushi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishining 1,6 foizga teng bo'ldi, o'tgan 2023-yilning huddi shunday yanvar oyidan boshlab sentyabr oylarigacha bo'lgan davrda ushbu ko'rsatkich 1,5 foizga teng bo'lganligini statistika tarmog'i ko'rsatib turibdi. 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2021-yilga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin, ya'ni 2021-yilda 2,4 foizni tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2025-yil boshidan hozirgi vaqtgacha 35515 ta korxonalar o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan. Respublikada mavjud korxonalarini tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ulush 151163 ta savdo sohasiga to'g'ri kelmoqda, bu ko'rsatkich umumiy korxonalar sonining 38 foizini, ulardan keyingi o'rinlarda 58860 ta bilan sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida 34316 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha 29106 ta, qurilish sohasida 29145 ta, tashish va saqlash sohasida 16667 ta, sog'likni saqlash va xizmat ko'rsatish sohasida 9824 ta, axborot va aloqa sohasida 10548 ta boshqa sohalarda 57679 tani tashkil etmoqda. Mamlakatdagi korxonalar sonidan kelib chiqib tahlilni amalga oshirilganda bugungi kunda sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishga juda katta e'tibor berilganini ko'rish mumkin.


O'sishning bunday ko'rsatkichlariga yangi va zamonaviy korxonalar qurish, texnologiyalarni qayta jihozlash, sanoatning xomashyo bilan ta'minlash qismini rivojlantirish va sanoatga doir xomashyosini qayta ishlashni nazarda tutuvchi tarmoqlarni, dasturlarining o'z o'rnida va tartibli amalga oshirilishi ham yordam berdi. Sanoatdagi investitsiya loyihalari sifatida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston GTL, Toshkentdagi metallurgiya kombinati, Navoiy va Samarqanddagi qayta tiklanuvchi energiya texnologiyasidan foydalanadigan fotoelektr stansiyasi, to'qimachilik, neftkimyo, sement sanoati va boshqa bir qator loyihalar ishga

tushirilganini alohida qayd etish lozim. Eksport va import sohasida xam qator o'zgarishlar qayd etildi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi 2025-yil 1-iyul holatiga tadbirkorlik subyektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)²

Eksport hajmining ortishi va uning o'zgarishlariga tashqi bozorga sotishga tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish choralari ta'sir ko'rsatdi. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar tomonidan 551,1 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan, 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning hajmi indeksi 105,2 foizni tashkil etdi.



3-rasm. Yalpi ichki mahsulot o'sishida sanoat tarmog'ining hissasi³, %

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/59037-o-zbekistonda-qaysi-sohada-yangi-korxonalar-ko-proq-tashkil-etilmoqda-15>

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/59423-yalpi-ichki-mahsulot-o-sishida-sanoat-tarmog-ining-hissasi-qanday>

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiyotning sanoat sohasida uning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'ladigan xavf keltirib chiqaruvchi muammolar saqlanib qolmoqda, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha yetarli darajada texnologiya bo'lmaganligi tufayli xomashyoni qayta ishlash darajasi past holatda qolmoqda. Ushbu holat import qilinadigan tovarlarni iste'mol qilishning darajasi keskin o'sishiga olib keladi.

Keyingi qadamlar: 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etish bo'yicha quyidagi choratadbirlar va loyihalar ko'zda tutilgan:

- klasterlar yaratish, mis, tabiiy gaz va boshqa xomashyolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish;
- avtomobilsozlik sohasida kooperatsiyani rivojlantirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish;
- to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish;
- charpoyabzal sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- farmatsevtika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish;
- elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarishni ikki barobar oshirish. Bundan tashqari, tayyor mahsulotlarni Yevropa bozorlariga eksport qilishni rag'batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini amalga oshirish hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha choratadbirlar ko'rish nazarda tutilgan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash uchun olib borish kerak bo'lgan vazifalar va mavjud chora tadbirlarni rivojlantirish quyidagilardan iborat:

- sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni qayta ishlashni yanada mukammal tarzda va to'liq mahsulot holga kelguncha mamlakatda ishlab chiqarish;
- mahalliy xomashyoni ishlab chiqarish davomida ekologik jihatdan to'liq tahlil qilish, zarur texnik texnologik mahsulotlarni olib kirishda va yaratishda ekologik texnologiyalardan foydalanish;

- yangi zamonaviy texnologiyalarni jahon tajribasini o‘rgangan holda zamonaviy va energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarni olib kirishda investitsiyalarga keng yo‘l ochib berish;

- zamonaviy texnologiyalarni yaratish va muhandislik texnologiyalarini, iqtisodiy tomondan tahlil qilish uchun tadqiqot va ishlanmalar, ilmiy ishlarni qo‘llab quvvatlash va rivojlanishiga keng yo‘l ochib berish.

Umuman olganda, sanoat tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish sanoat korxonalarining zamonaviy talablarga javob beradigan, barqaror va samarali rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Ushbu sanoat tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish ekologik muammolarni yengillashtirish bilan birgalikda, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va korxonalarni global raqobatbardosh qilishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, sanoat tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish korxonalar uchun strategik ahamiyat kasb etib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish asosini yaratadi.

Mahalliy sanoat tarmog‘ini iqtisodiyot orqali rivojlantirish sanoat korxonalariga global inqirozlar ta‘sirini kamaytirishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar (masalan, oxirgi yillarda yaratilgan va ekologik va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishni oshirish) sanoatning rivojlanishi samaradorligini oshiradi.

So‘nggi yillarda mamlakatda sanoat korxonalarida iqtisodiy rivojlanishi uchun yaratib berilgan imkoniyatlar va O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga hamda iqtisodiy farovonligi yillar davomida oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

2. Jo‘rayev D.M- Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog‘ining tutgan o‘rni // Yashil-iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023.-№ 10. b. 1086-1090.

3. Ленько О.В. Оценка значимости информационно коммуникационных технологий для управления промышленным предприятием. // Проблемы региональной экономики. —2005. —№ 34. С.50

4. Дедов О.А. Управление экономической адаптацией промышленного предприятия. // Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2022 № 143.

5. Рифкин Дж. Третья промышленная революция. Как горизонтальные взаимодействия меняют энергетику, экономику и мир в целом. – М.: Альпина нон-фикшн, 2014.

6. Tojimatov B.Sh. Factors Affecting The Development Of Small Industrial Zones // Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review. Vol. 13 No. 11 2024, pp. 6-10.

7. Tashmatov S.Z. Analysys of digital economy development in Uzbekistan Republic // International Journal of Economic Integration and Regional Competitiveness. Volume 1 Nomor 7 July 2024, pp. 5-8.

8. Ziyayeva D.F Sanoatning ribojlanish nazariyalarining tuzilmaviyuy-funksional tahlili // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. No 10.2025. b. 367-374.

9. <https://stat.uz>